



HAYOT DAVOMIDA TA'LIM OLİSH: YANGI PARADİGMALAR VA KUTILADIGAN NATIJALAR FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATİSYASI

ISSN: 2181-1776

Shodiyarova Shahnoza Rustam qizi

SamDU Kattaqo 'rg'on filiali 1-bosqich talabasi

TA'LIM TİZİMİDA INKLÝUZİV TA'LIM

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizda joriy qilinayotgan yangi ta'lism tizimi ya'ni inklyuziv ta'lism tizimining takomillashuvi, va bu ta'lism tizimi maktabgacha ta'lism tashkilotlari va Umumiy o'rta ta'lism tizimida ham joriy qilinganligi, inklyuziv ta'lism tizimini rivojlantirish maqsadida yangi qaror va farmonlar qabul qilinib, vazifalar yuklatilganligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: ta'lism, tarbiya, inklyuziv, rivojlanish, takomillashuv, harakat KIRISH

Mamlakatimizda ta'lism tizimiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda. O'tgan davr mobaynida mamlakatimizda o'sib borayotgan avlodni sog'lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta'lism-tarbiya jarayoniga samarali ta'lism va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta'lismning samarali tizimini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, olib borilgan tahlil, bolalarining maktabgacha ta'lism bilan qamrovini ta'minlash, maktabgacha ta'lism muassasalarini zamonaviy o'quv-metodik materiallar va badiiy adabiyotlar bilan to'ldirish, sohaga malakali pedagog va boshqaruv kadrlarini jalb qilish masalalarini hal etish zarurligini ko'rsatmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashi 46-sessiyasidagi nutqida strategik yo'nalishlar, jumladan, Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiyani ratifikatsiya qilish masalasiga alohida e'tibor qaratildi.



Butun dunyoda qariyb 1 milliardga yaqin nogironligi bo‘lgan shaxslar borligi haqida o‘ylab, fikr yuritsak, bu nihoyatda ahamiyatli tashabbus ekaniga amin bo‘lamiz.

Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalaming sifatli maktabgacha ta’limdan teng foydalanishini ta’minalash, maktabgacha ta’lim xizmatlarining nodavlat sektorini rivojlantirish maqsadida, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Ushbu qarorda O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi ishlab chiqildi.

UNICEF inklyuziv ta’limni O‘zbekiston ta’lim tizimiga kiritish masalalari bilan shug‘ullanadi. Inklyuziv ta’lim vazifasi bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat’i nazar, ularning barchasiga sifatli ta’lim taqdim etishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Maktabgacha ta’lim sohasidagi normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, bolalarning sifatli maktabgacha ta’lim bilan qamrovini oshirish, undan teng foydalanish imkoniyatlarini ta’minalash ko‘zda tutildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"gi farmoniga muvofiq O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni rivojlantirish, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko‘rsatiladigan ta’lim xizmatlari sifatini yaxshilash maqsadida 2020 — 2025-yillarda xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiysi ishlab chiqildi.

Maktablarda inklyuziv ta’limni rivojlantirish to‘g‘risidagi nizom tasdiqlandi

2020–2025 yillarda xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasiga O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni rivojlantirish, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko‘rsatiladigan ta’lim xizmatlari sifatini yaxshilash bo‘yicha quyidagi asosiy ustuvor vazifalarni nazarda tutadi:

- alohida ta’limga muhtoj bolalar o‘qiydigan ta’lim muassasalarini binolariga qo‘yiladigan talablarni ishlab chiqish va tasdiqlash;
- ushbu ta’lim muassasalarini zarur adabiyotlar, o‘quv qurollari, turli kasblar bo‘yicha o‘qitish uchun moddiy-texnik baza va jihozlar bilan ta’minalashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalgalga oshirish;
- inklyuziv ta’lim tizimini tashkil etish, ta’lim muassasalarini maxsus asbob-uskunalar bilan (yuk ko‘tarish moslamalari, panduslar, panjara va boshqalar), shuningdek, tegishli xodimlar bilan ta’minalash (maxsus o‘qituvchilar, bolalarni psixologik-pedagogik nazorat qilish bo‘yicha mutaxassislar);



• alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarning moslashuvi va integratsiyalashuvi uchun maktab-internatlarni maxsus jihozlar bilan bosqichma-bosqich ta'minlash va boshqalar.

Qaror bilan umumiy ta'lim muassasalarida alohida ta'limga muhtoj bolalarni inklyuziv o'qitish to'g'risidagi nizom tasdiqlandi. U quyidagilarni nazarda tutadi:

- inklyuziv ta'limning maqsad va vazifalari;
- maktablarda inklyuziv ta'lim va boshlang'ich tuzatish sinflarini tashkil etish tartibi va alohida ta'limga muhtoj bolalar uchun o'quv jarayoni;
- bolalarni inklyuziv ta'lim va boshlang'ich asosiy tuzatish sinflariga qabul qilish tartibi;
- inklyuziv ta'lim va boshlang'ich asosiy tuzatish sinflarida ta'lim sifatini nazorat qilish va boshqarish bo'yicha chora-tadbirlar.

MUHOKAMA

2020-2025-yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini 2020-2021-yillarda amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi" ishlab chiqildi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'limini 2025-yilgacha rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari (indikatorlari) tasdiqlandi.

Konsepsiya erishilgan natijalar, maqsadli ko'rsatkichlar va tegishli davrga mo'ljallangan asosiy yo'naliishlardan kelib chiqqan holda 2022-yildan boshlab har yili tasdiqlanadigan alohida "Yo'l xaritasi" asosida bosqichma-bosqich amalga oshirilishi belgilandi.

Konsepsiya ikki bosqichda amalga oshirish, jumladan:

2020-2022-yillar davomida:

Inklyuziv ta'lim tizimi sohasidagi normativ baza takomillashtirish;

Inklyuziv ta'lim tizimi uchun malakali pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta va malakasi oshirish;

Inklyuziv ta'lim joriy etilgan muassasalarning moddiy-texnika bazasi mustahkamlanishi, ular maxsus moslamalar (ko'tarish qurilmasi, pandus, tutqich va boshqalar), zarur adabiyotlar, metodik qo'llanmalar, turli kasblarga o'qitish uchun uskuna va jihozlar bilan ta'minlanishi;

Inklyuziv ta'lim sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalar joriy etish;

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning bilim olish huquqi, inklyuziv o'qitishning mazmun-mohiyatini tushuntirish orqali aholi o'rtasida ijtimoiy muhit shakllantirish;

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni kamsitish, ularga salbiy muomalada bo'lishning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirish;

Inklyuziv ta'lim tizimi tajriba-sinov tariqasida alohida ta'lim muassasalarining faoliyatiga joriy qilish;

2023-2025-yillar davomida:



Inklyuziv ta'lim tizimi bosqichma-bosqich boshqa umumiy o'rta ta'lim muassasalarida joriy qilish;

Alovida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan har bir bolaning inklyuziv ta'lim olish huquqini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirish;

Inklyuziv ta'limda o'qitish usullari takomillashtiriladi hamda ta'lim jarayoniga individuallashtirish tamoyillari bosqichma-bosqich joriy etish;

Inklyuziv ta'lim jarayonida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga, ularning jismonan sog'lom va baquvvat shakllanishiga qaratilgan choralar ko'rish;

O'quvchilarning jismoniy va aqliy ehtiyojidan hamda ta'lim muassasalarining geografik joylashuvidan kelib chiqib alovida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasalari soni optimallashtirish belgilab qo'yildi.

Natija: Inklyuziv ta'lim vazifasi bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat'i nazar, ularning barchasiga sifatli ta'lim taqdim etishdan iborat. Shu bilan birga, inklyuzivlik tamoyili imkoniyatlari cheklangan bolalar ijobjiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo'lishlari uchun oilada yashashlari va o'z tengdoshlari bilan birga oddiy mакtabda bilim olishlari lozimligini nazarda tutadi. Inklyuziv ta'lim tizimi nogironlar aravachasidagi bola yaqin atrofda joylashgan har qanday maktabda ta'lim olishi, o'zlashtirishda qiynalayotgan bo'lsa, o'qish va yozishga o'ргanish uchun maxsus yordamga ega bo'lishi, darslarga qatnamay qo'ygan bolaga esa maktabga qaytish uchun tegishli yordam ko'rsatilishini kafolatlaydi.

XULOSA

Maktabgacha ta'lim tizimida inklyuziv ta'limning ahamiyati shundaki, imkoniyati cheklangan bolalarni ilk yoshlaridan oq sog'lom bolalar qatoriga qo'shib sifatli ta'lim

Olishini ta'minlagan holda bolada ruhiy va jismoniy hissiyotlarini va haraktlarini rivojlantirishdir.

Inklyuziv ta'limda imkoniyati cheklangan bolalarga nima beradi?

-o'z imkoniyatini o'zi uchun kashf etish imkonini beradi

- mustaqil harakatlanish birgalikda, hamkorlikda ishslash imkoniyati orqali yuzaga keladi;

-dunyoqarashi kengayadi, hayotiy tajribasi oshadi; -o'qishga bo'lgan ehtieji va qiziqishlari ortadi;

-O'zini barcha bilan bir xil his qila boshlaydi; -Ilgari sezilmagan imkoniyatlari ochiladi;

-Yotsirash, yakkalanish kabi xususi yatlari yo'qoladi. Inklyuziv ta'lim sog'lom bolalar hayotiga qanday ta'sir ko'rsatadi? -O'zlariga o'xshamagan tengdoshlari va ularning hayoti, ehtiyojlarini his qiladilar;

-Tengdoshlariga g'amxo'rlik hissi uyg'onadi;

-Ularni qo'llab-quvvatlash, yordam berishga intilish -insonparvarlik hissi tarbiyalanadi;



-O‘quvchilarda atrofdagi insonlarga, imkoniyati cheklanganlarga pozitiv munosabat, o‘zaro hurmat tarbiyalanadi

-Yordamga muhtoj insonlarga e’tibosizlik qilmaydigan shaxsga aylanadilar

-Hozirda mamlakatimizda inklyuziv ta’limga yo‘naltirilgan maktabgacha ta’lim

Tashkilotlari kun sayin ko‘payib va takomillashib bormoqda.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida qarori PQ-4312 08.05.2019

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining alohida ta’lim olish ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim- tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora – tadbirdari to‘g‘risidagi qarori -4860 13.10.2020

3. Д.З. Ахметова, З.Г. Нигматов, Т.А. Челнокова, Г.В. Юсупова и др. Педагогика и психология инклюзивного образования: учебное пособие . – Казань, 2013

4. Буторина, О. Г. Об опыте воспитания и обучения детей с ограниченными возможностями здоровья / О. Г. Буторина // Воспитание школьников, 2010

5. Инклюзивная практика в дошкольном образовании. Современный образовательный стандарт / Т. В. Волосовец, А. М. Казьмин, В. Н. Ярыгин. – М.: Мозаика-Синтез, 2011. – 144 с.

6. D.S.Qaxarova “ Inklyuziv ta’lim texnologiyasi” o‘quv va metodik qo‘llanma 2014-yil